XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. DJabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	



TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIJ TAJRIBASI



Raxmatova Shaxnoza Rustamovna

Navoiy Innovasiyalar Universiteti
"Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari"
kafedrası o'qituvchisi
rahmatovasahnoza083@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8632-8347



Ochilova Dilnoza Ismoil qizi

Navoiy Innovasiyalar Universiteti
"Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari"
kafedrası o'qituvchisi
dilnoz_noz@bk.ru
ORCID:0009-0006-3892-9044

Annotatsiya. Mazkur maqola xorijiy tajribaga asoslangan holda tijorat banklarini raqamlashtirish, tijorat banklarida raqamli marketingni qo'llashda chet et tajribasidan foydalanish samaradorligi, mamlakatimiz banklarining jahon kliring to'lov sistemasi doirasida hisob-kitoblarni o'tkazishning zamonaviy shartlariga moslashishi, iqtisodiy hisob-kitoblarni tahlil qilish, bank marketingini takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, tijorat banklari, xo'jalik subyektlari, bank operatsiyalari, bank xizmatlari, mablag', bozor munosabatlari, bo'sh pul mablag'lari, ishlab chiqarish jarayoni, xalqaro bank amaliyoti.

Abstract. This article includes digitization of commercial banks based on foreign experience, the effectiveness of using foreign experience in the application of digital marketing in commercial banks, adaptation of banks of our country to modern conditions for conducting calculations within the framework of the world clearing payment system, analysis of economic calculations, improvement of bank marketing.

Key words: Economy, commercial banks, business entities, banking operations, banking services, funds, market relations, free cash, production process, international banking practice.

Аннотация. Данная статья охватывает цифровизацию коммерческих банков на основе зарубежного опыта, эффективность использования зарубежного опыта в применении цифрового маркетинга в коммерческих банках, адаптацию банков нашей страны к современным условиям проведения расчётов в рамках мировой клиринговой платёжной системы, анализ экономических расчётов, совершенствование.

Ключевые слова: Экономика, коммерческие банки, хозяйствующие субъекты, банковские операции, банковские услуги, средства, рыночные отношения, свободные денежные средства, производственный процесс, международная банковская практика.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'lganligi sababli, bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda. Chunki tijorat banklarining foydasi bankning marketing strategiyasining zamonaviy uslublarini qo'llash va bank rivojlanishining asosiy manbasidir. Mamlakatimiz banklari tomonidan bank xizmatlarining rivojlanishida jahon tajribasidan foydalanish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan quyidagi holatlarga ahamiyat berish lozim. Chet el tajribasidan foydalanish samaradorligi, mamlakatimiz banklarining jahon kliring to'lov sistemasi doirasida hisob-kitoblarni o'tkazish zamonaviy shartlariga moslashishi, mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga xizmat ko'rsatganda xatarlarni boshqarish, elektron bank xizmatlarini tashkil etishda Internetdan foydalanish, investitsion bank xizmatlarini rivojlantirish, xususan, korporativ moliya sohasida aktivlarni ko'paytirish va boshqarish. Mamlakatimiz banklariga chet el tajribasini bank va mijoz uchun maqbul shaklida ishlab chiqish, bosqichma-bosqich tartibda ularni amalga oshirish, har bir bosqichda xatarni ajratish va baholashni tatbiq etish lozim. Bu amaliyotlar strukturasi kompleks tahlil etish, kontragentlarning kredit, valuta va to'lov xatarini hamda xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi. Bank xizmatlari jahon tajribasidan foydalanish, respublikamiz banklari uchun segmentatsiyalangan yondashishni qo'llaganda va korporativ mijozlar bilan ishlashda, eksportga yo'naltirilgan korporatsiyalarga va boshqa mijozlariga xizmat ko'rsatishda moslashtirilgan holda zarur. Tajribani jalb etishning muvaffaqiyatli bo'lishi bank xizmatlarining sifatiga bog'liq va «bank xizmatlari - hisobraqamlari bo'yicha aylanmalar - u bilan bog'liq xizmatlar» tamoyiliga asoslangan. Jahon tajribasidan foydalanishda, tashqi iqtisodiy faoliyat xatarlarni boshqarish muhim omil hisoblanadi, buning uchun xatarlar hisobkitobi jadvalini ishlab chiqish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida marketing faoliyatini tahlil qilish mavzusi yuzasidan, xorijlik bir qator iqtisodchilar, jumladan D.Aaker, F.Kotler, Armstrong, hamda MDH mamlakatlari olimlaridan O.Lavrushin, A.B.Tyutyunik, A.B.Turbanov va boshqalar tadqiqot olib borganlar. O'zbekistonlik olimlar bugungi kunga qadar bank tizimida marketing faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha Sh.Z.Abdullayeva, D.N.Allayorova, Z.B.Mustafayev va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida ham tadqiq etilgan [3]. Bank tizimida marketing faoliyatini takomillashtirish va tadqiq etishda bank marketing umuman marketing tushunchasiga aniqlik kiritish talab etiladi. Bank marketing mohiyatini ochib berishda xorijlik iqtisodchi olim Jan-Jak Lomben, bank marketing-degan so'zning tarjimai bozor bilan bog'liq, degan ma'noni bildiradi. Lekin bu mohiyat e'tibori bilan olganda ancha keng, tushunchadir deb ta'riflab o'tadi. E.A.Utkin tomonidan yozilgan "Банковский маркетинг" kitobida keltirilgan ma'lumotlar, ya'ni bank marketingiga berilgan ta'riflar, uning tamoyil va maqsadlarini boshqa mualliflar tomonidan yozilgan kitoblarda ham ko'rish mumkin [3]. I.T.Balabanovning "Банки и банковское дело" nomli kitobida bank marketingiga qisqacha to'xtab o'tilgan bo'lib, unda bank marketingining nazariy tushunchalariga katta e'tibor berilgan. Bundan tashqari marketing tadqiqotlari o'z ichiga oluvchi faoliyatlar haqida ham tushunchalar berilgan [4]. V.E.Cherkasov va L.A.Plotisinalar muallifligi ostida nashr etilgan "Банковские операции: маркетинг, анализ, расчёты" kitobida bank xizmatlari bozori va uning tahlili to'g'risida tushunchalar berilgan [5]. Xizmatlar bozorida aniq banklarga tegishli ulushlarni aniqlash va ularni tahlil etish yo'nalishlari ko'rsatilgan. O.I.Lavrushin muallifligi ostida nashr etilgan "Управление деятельностью коммерческого банка" kitobida bank marketingi to'g'risida fikrlar yuritilgan [6].

Avvaliga, banklar marketingini bank xizmatlariga bo'lgan talabni o'rganish, mijozlarni jalb qilish va rag'batlantirish maqsadida o'rganishgan xolos. Banklarda marketing konsepsiyasi o'tgan asrning 80-yillaridagina tashkil topib, u tijorat banklarini boshqarish uchun asosiy mezon sifatida yuzaga keldi. Marketing strategiyasi birinchi navbatda banki o'z mahsulotiga emas, balki mijozlarning aniq ehtiyojlariga qaratilishi zarurligini taqozo qiladi. Shuning uchun marketing bank xizmatlarini, mijozlarning manfaatlarini moliya bozorida to'liq o'rganish va ehtiyojlarining o'zgarish tahlilini olib borishni nazarda tutadi. Bank marketingi rivojlanib borishi bilan ko'plab iqtisodchilar tomonidan ushbu mavzuda kitoblar va maqolalar chop etila boshlandi. Bank marketingining mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari, asosiy vazifalari va uning boshqa nazariy tushunchalari ko'plab adabiyotlarda, kitoblarda keltirilib o'tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi o'rganilib, ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari bilan belgilandi. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, u umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullaridan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarini raqamlashtirish, xususan xorijiy tajribaga asoslangan holda, ko'pgina tahlillarga asoslanadi. Xorijiy tajribaga ko'ra tijorat banklarini raqamlashtirish quyidagi yo'lga yo'naltiriladi:

1. Moliyaviy ko'rsatkichlar va hisob-kitoblari: Tijorat banklarining raqamlashtirishida eng muhim moliyaviy ko'rsatkichlar ko'rsatiladi. Bu ko'rsatkichlar orasida daromad, tovar va xizmatlar chiqimi, daromad solingan foizlari, kredit va diqqat uchun rahbariyat xarajatlari, majburiy rezervlar kabi ko'rsatkichlar kiradi.

2. Mablag'larining foydali daromadi: Tijorat banklari qanday daromad olishlari, moliyaviy aktivlari, moliyaviy majburiy ballar, joriy balans va daromadmi hisoblashda maqsadlashgan balansni muhokama qiladi. Barcha mablag'lar uchun foydali daromad hisob-kitoblari olib boriladi.

3. Kredit portfeli: Kreditlar, kredit portfeli va undagi talablar, kreditning konsentratsiyasi, daromad, foydalar va takchiliklar o'rtasida munosib nisbatlar kengayadi.

4. Operatsion dastlabki qisqacha: Xaridorlarning tovar va xizmatlar uchun sotib olishlari, mablag'lar o'tkazishlari, amalga oshirishlari yoki mijozlar bilan amalga oshirilgan meroslar operativ darajalarida muvofiq raqamli ta'minotni kengaytiradi.

5. Hisob-kitob tizimi: Tijorat banklarining hisob-kitoblari, pul birligining raqamli tijorat, tijorat banklari balansi, foydali daromad va ko'plab boshqa moliyaviy ma'lumotlar tizimini shakllantiradi.

6. Boshqa moliyaviy muammoni muhokama qilish: Xorijiy tajribaga asoslangan holda, boshqa moliyaviy muammolar, sifat va faoliyatdarlik darajalari shu jihatdan istiqbolli sharhlatiladi.

Xorijiy tajribaga asoslangan holda tijorat banklarini raqamlashtirish moliyaviy, iqtisodiy hisob-kitoblarni tahlil qilish, moliyaviy mablag'lar amalga oshirish, daromadning olinishi va boshqa moliyaviy operatsiyalarni takidlashni o'z ichiga oladi. Bu jihatdan raqamlashtirish tijorat banklari uchun samarali moliyaviy va operatsion boshqaruvni yaratishda juda muhimdir.

Xalqaro kapital bozorida bank xizmatlarini rivojlantirish uchun respublikamiz banklari kredit tarixini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda ularning ustivor vazifalari bo'lib aksiyadorlik kapitaliga chet et investorlarini ma'lum darajadajalb et ish hisoblanadi. Bu arzon kreditlarni olishga, xalqaro tajribadan foydalanish asosida bank xizmatlari va texnologiyalarini rivojlantirishga, mijozlarni ko'paytirishga va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga yordam beradi. Bank tizimini rivojlantirish faqatgina kredit muassasalarning kapitalizatsiyasini o'rnatish bilan bog'liq bo'lmay, ishonchni o'rnatish va bank xizmatlari kapitalini rivojlanishi bilan birga olib borilishi lozim. Shuning uchun bank tizimini modernizatsiyalash maqsad va vazifalari mustahkam rivojlanishni ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak.

Xizmat ko'rsatishni differensiyalash va bozor segmentatsiyasi orqali mijozlarni jalb qilish yaxshi natijalar berib, yangi xizmatlarning sotuvidan foydani ta'minlasada, ular, ko'pincha, qisqa davrda samaralidir. Chunki boshqa moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi firmalar tezlikda foydali bo'lgan differensiyalash va segmentatsiyalash sohasida osonlik bilan har bir bank amaliyotlarini bajarishi mumkin va bu holatda raqobat yuzaga keladi hamda bank yangi xizmat ko'rsatish g'oyasini izlashi zarur bo'ladi. Bozorda erishilgan afzallikni pasayishiga to'sqinlik qiladigan yo'llardan biri, boshqa hech qaysi xizmat ko'rsatuvchi firma foydalana olmaydigan esda qoladigan shiordan, savdo markasi yoki patentlangan nomdan foydalanishdir. Bu mijoz moliya muassasasining reklamasini ko'rganda yoki mazkur bankka borganda bank uchun kerak bo'lgan hissiyot va reaksiyani yuzaga keltiradi. Lekin, bu usullarning samaradorligi uzoqqa cho'zilmaydi. Shu bois bank boshqaruvi doimiy ilgari lab borib, o'zgarib turadigan sharoitda o'z mijozlarining talablari bo'yicha qadam tashlashi lozim. Shu bilan, birga mijozlarni tez-tez o'rganib turish, mijozlar orasidan maslahatchi guruhlarini tashkil etish yoki mijozlar xohlagan vaqtlarida telefon qilib o'zlarining shikoyat va takliflarini ayta olish imkoniyatini beruvchi bepul telefon aloqalarini tashkil etish kerakli usullardan bo'lib qolaveradi.

Respublikamiz tijorat banklari marketing faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, banklar tomonidan foydalanilayotgan bank marketingi modeli hozirchajuda oddiy bo'lib, pul mablag'larini bankka jalb qilish bo'yicha bozorni jiddiy va chuqur o'rganish bilan bog'lanmagan:

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Tijorat banklari faoliyatidagi likvidlilik riski bo'yicha o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlari

Iqtisodiy me'yorning nomi	Hisoblash metodikasi	Me'yoriy darajasi
Joriy likvidlilik koeffitsiyenti	Likvidli aktivlar va yaqin o'ttiz kun ichida qaytariladigan aktivlar Talab qilib olinadigan depozitlar va yaqin o'ttiz kun ichida to'lanadigan majburiyatlar	min 0,30
Leverej koeffitsiyenti	Birinci darajali kapital Likvidli aktivlar-nomoddiy aktivlar	min 0,06



CAMELS reyting tizimida tijorat banklarining bozor riskiga ta'sirchanligi bo'yicha baholash

1	5 gacha
2	5 dan 15 gacha
3	15 dan 30 gacha
4	30 dan 50 gacha
5	50 dan yuqori

Yuzaga kelgan bank tizimining rivojlanish yo'li O'zbekistonda bank kapitalining xususiyatlarini, ya'ni bank kapitalini jamlashning asosiy manbai budjet mablag'lari sifatidagi arzon resurslar, markazlashgan ssudalar, hukumat rejalarini moliyalashtirishda ishtirok etishdan iborat ekanligini belgiladi. Lekin, bunga davlat banklarining ma'lum doirasigina kiraoladi. Agar Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki ixtisoslashtirilganligi va xizmatlarni tatbiq etishga intilib jahon standartlariga javob bera oladigan marketing usullarini qo'llashni boshlagan bo'lsa, boshqa banklar o'z ixtisoslaridan foydalanib, bank xizmatlari bozorida o'z ulushlarini saqlab qolishga intildilar. Lekin, Respublika hukumati tomonidan qabul qilingan xususiy banklarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar o'z natijalarini berdi va raqobatli muhitni rivojlantirishga imkon yaratdi. Raqobatga layoqatni saqlab qolish uchun, boshqa banklarda mavjud xizmatlar bo'yicha raqobatbardosh shartlar taqdim etish yoki yangi bank xizmatlarini tatbiq etish lozim bo'lib qoldi.

Bank xizmatlari bozori miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha barqarorlik an'anasiga ega. Mahalliy va chet el banklari, hamda banklar va nobank moliya muassasalari o'rtasidagi raqobatning o'sishi bank xizmatlari turini kengayishiga va foydani ko'payishiga imkon berdi. Bundan tashqari, Respublika hukumati tomonidan moliyaviy sohani muayyan tartibdan chiqarish, bank menejerlariga mijozlarni jalb qilish uchun mustaqil yangi shakllarni ishlab chiqishga imkoniyat berdi.

Marketingni boshqarishni tashkil etish va dastlabki rivojlanish davrida respublikamiz tijorat banklari marketingni boshqarish asosiy usullari bank xususiyatlarini va ixtisosini hisobga olmagan holda filial tarmoqlarini kengaytirish, xizmatlar standart to'plamini taqdim etish, o'rtacha tariflarga moslangan narxni shakllantirish strategiyasini amalga oshirishdan iborat bo'ldi.

Keyinchalik yirik banklarda filiallar tarmog'ini kengaytirish sekinlashdi yoki umuman to'xtadi, ba'zi banklarda filiallarni kamaytirish jarayoni yuz berdi. Ikkinchi tomondan marketing usullarini ustun tomonlari, kanallar va bank mahsulotlarini sotish hajmini ko'paytirishga mo'ljallangan mini-banklarni ko'paytirishga, «Bankmijoz» tizimini, plastik kartochkalarni rivojlantirishga, yangi bank xizmatlarini tatbiq etishga, vaqti-vaqti bilan bank mahsulotlariga bo'lgan tarifni o'zgartirishga majbur etdi.

Yangi bank xizmatlarini taqdim etish, bank amalga oshirishgajazm etgan xatarli chora-tadbirlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bank ishida yangi bank xizmatlarining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi ko'pincha alohida bank nazoratidan tashqaridagi umumiy omillar bilan aniqlanadi, ayniqsa, bank faoliyatini tartibga solish yangi xizmat atrofida shafqatsiz to'siqlar hamda iqtisodiy shartlar qo'yishi, jurnladan foiz stavkalarini tebranishi yangi xizmat turlarining xarajat va daromadlari o'rtasidagi nisbatni keskin va tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin.

Bu holatda yangi bank amaliyotlarini amalga oshirish, yangi bank xizmatini yetarli rivojlantirish, ishlab chiqarish va marketing uchun kapitalning mavjud emasligi, yangi xizmatning tatbiq etilishida yuqori bank rahbariyatining yetarli ishtirok etmasligi, bozor yomon o'rganilgan holda, bank marketing bo'limi jamiyatning yangi xizmat turiga bo'lgan talabini aniq belgiy olmaganligi, yomon xizmat ko'rsatilganda, mijozlar yangi xizmat reklamasini va uning bajarilishi o'rtasida muvofiqlik yo'qligini sezgan hollarda muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Buni plastik kartochkalar misolida kuzatish mumkin, ya'ni naqd pul muomalasi bilan bog'liq omillar terminallar va bankomatlardan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatdi va ularning xarajatlarni qoplamadi. Yangi xizmatning bank uchun xatarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ko'pchilik tijorat banklari amaliyotida ma'lum narxni shakllantirish usullari orasida raqobatga qarab narxni shakllantirish keng tarqalgan. Xarajatlar asosida narxni belgilash usuli asosan yirik tijorat banklari tomonidan qo'llaniladi. Lekin, ko'rsatilgan bank xizmatlari narxini xarajatlar asosida aniqlash, tijorat banklarida amaliyotlar turi bo'yicha aniq xarajat va chiqimlar taqsimoti mavjud holdagina amalga oshirilishi mumkin.

Oxirgi yillar davomida marketingning asosiy elementi asosan banklarni universallashtirishga yo'naltirilgan va bankning ixtisosi bo'yicha mijozlarga standartlashtirilgan xizmatlar to'plamini taqdim etgan banklar filial tarmog'ini kengaytirmoqdalar. Kredit qo'yilmalar bo'yicha marketing bozorining yagona yo'nalishi - yuqori foiz bilan mablag'larni tez qaytarib olishga intilish bo'lib qolmoqda. Qoidaga ko'ra, banklar baholash va korxonalarning faoliyatini iqtisodiy tahlili, uning balans tahlili, to'lovga layoqatlilik, chiqarilayotgan mahsulotlar sifati, raqobat darajasi, reklama bilan bog'liq umumqabul qilingan jahon usullarini qo'llamaganlar.



Banklar marketing strategiyasining asosiy xususiyati ommaviy axborot vositalari orqali aholi qo'yilmalari bo'yicha yuqori foizlarni to'lash haqida reklama qilish bo'lib qoldi. Bunday reklamalarda bank o'z moliyaviy holati haqida axborot bermaydi, aksincha faqat qo'yilmalar bo'yicha 3, 6, 12 oylik foizlar to'lovi turidagi an'anaviy bank xizmatlari to'plamini taklif etmoqdalar. Depozitlar hamda aktiv amaliyotlar bo'yicha samarasiz marketing strategiyasi natijasida bank menedjmenti ham samarasiz bo'lib qolishiga olib keldi, bu o'z navbatida O'zbekistondagi ba'zi bank faoliyatlarini tugatishga olib keldi (XIF bank, Karvonbank).

Respublikada bank mahsuloti bo'yicha (xususiyatlari, samarali foydalanish, ishonchlilik, rasmiylashtirish) bank aktiv amaliyotlar hajmini o'rttirishga bank rahbarlari tomonidan tijorat yondoshuv yetarli darajada mavjud emas. Banklar F.tahsulot xususiyati va rasmiylashtirilishiga, uning soddaligiga ahamiyat bermayaptilar. Banklar tomonidan mahsulotdan foydalanish bo'yicha maslahatlar berilmaydi. Bundan tashqari, mahsulotlar hayotiy davri bo'yicha balanslanmagan.

3-jadval. Tovarining har xil hayotiy davri fazasida marketing taktikasi

	Bozorga chiqish bosqichi	O'sish bosqichi	Yetuklik bosqichi	Chiqish bosqich
Tovar	Asosiy	Nomenklaturasini kengaytirish	Yangi tovarlarni bozorga kiritish	Bozordan chiqish
Baho	Past, aksincha yuqori	Narx oldingi fazadagiga nisbatan baland, yoinki uning yuqori darajasiga mos keladi	Chegirma va narxga nisbatan texnik harakatlar	Talab holatiga mos keladi
Sotish	Tovar tarqatish chegaralangan, bir segmentda konsentratsiyalangan	Sotishni tez kengatirish, yangi segmentlarni topish	Intensiv sotish	Tovarni tanlab tarqatish
Tovarni bozorga siljitish	Ancha harakat talab etiladi	Mumkin qadar maksimal harakat	Foydaga mos ravishda harakatning kuchsizlanishi	Tovarni bozordan chiqarish
Servis	Nazorat, mumkin qadar markazlashtirilgan nazorat	Nazorat, mumkin qadar markazlashtirilmagan nazorat	Servis markazi tomonidan olib borladigan nazorat	Tovarni sotish uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida servisdan foydalanish

Tarif siyosati bo'yicha banklar o'zlarining xarajatlari haqida aniq ma'lumotga ega emas. Ma'lum mijozlarning qiziqishiga qarab bozordagi baholar darajasi aniqlanadi. Shunga ko'ra deklaratsiya qilingan depozit foiz stavkalari kreditlar berilayotgan amaldagi stavkalariga to'g'ri kelmaydi, bozorning mahsulot bahosiga sezgirligi tahlil etilmaydi. Hisobkitob amaliyotlari va kassa amaliyotlari bo'yicha belgilangan stavkalar xarajatlar bilan bevosita bog'lanmagan, natijada, xarajatlar ko'paymoqda, xizmat ko'rsatish bo'yicha tariflar esa pasaymoqda. Buning oqibatida xizmatning rentabelligi pasaymoqda. Turli sabablarga ko'ra qaytarilmaslik xatari darajasi yuqori bo'lgan kreditlar berish amaliyoti mavjud. Banklar aniq maqsadli strategiyani qo'llamayapti.

Xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha. Banklar mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayoni haqida aniq axborotga ega emas, eng muhim holatni, ya'ni qanday xodimga mijozlarga xizmat ko'rsatish ishonib topshirilganligi va xizmat ko'rsatish bo'yicha talablar qandayligini o'rganilmayapti. Mijozlarga xizmat ko'rsatilgan holatlarda banklar ko'proq o'zlariga nima kerakligi haqida o'ylamoqdalar (hisobot uchun axborot, blankalar va boshqa bank hujjatlarini to'ldirish, soliqlarni o'z vaqtida to'lash va boshqa qonunchilik ijrosi bo'yicha majburiy to'lovlar va boshq.) va mijozlar bankdan nimalarni istayotganliklariga umuman ahamiyat bermaydilar. Xizmat ko'rsatish tamoyillari, ixtisoslashgan mahsulot sotuvchilar mavjud emas.

Reklama bo'yicha. Banklar reklamaning samaradorligi, ya'ni qaysi ommaviy axborot vositasi va qaysi reklama mijozlarni ko'paytirishga, xizmat ko'rsatish hajmiga, imidjni yaxshilanishiga irnkon yaratishi haqida aniq axborotlarga ega emaslar. Reklama kompaniyasi va olinayotgan foyda o'rtasida bog'liqlik elementi mavjud emas, shunga muvofiq bank mahsulot xarajatlari reklama chiqimlarini kiritmaydi. Bank aktiv amaliyotlari va bank imidjini o'sishi uchun zarur reklama axborotlarining o'zi mavjud emas. Ko'pincha ommaviy axborot vositalari xodimlarining o'zi banklarga kelib, reklama kompaniyalarini o'tkazadilar, banklarning esa reklamani samaradorligi va foydaliligini baholashga vaqt Jari bo'lmaydi.

Sotish kanallari bo'yicha. Ba'zi banklarning filial, mini-bank va kassa tarmoqlari kengaymoqda, ba'zi bir banklar esa tarmoqlarini qisqartirmoqdalar. Lekin kengaytirish sabablari har doim ham bank mahsulotlarini



sotish ortganligi bilan bog'liq emas. Bank mahsulotlari to'plami bilan aniq ishlab chiqilgan dastur, geografik va tarkibiy tuzilmaviy sotish kanallari tashkil etishi lozim.

Banklarda marketing faoliyatining qay tarzda shakllanishi bir qancha omillarga bog'liq. Ular:

- bankning qaysi sohada ixtisoslashganligi;
- tijorat yoki davlatga tegishiligi;
- ko'rsatayotgan xizmat turlari;
- iste'molchilarining xususiyatlari va boshqalar.

Ulardan eng asosiysi - bu iste'molchilarning xususiyatlaridir. Hozirgi kunga kelib, bank marketingi tomonidan iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida kreditlar berish, pul o'tkazish operatsiyalarini bajarish, depozitlarga qabul qilish, sayyor banklar faoliyatini yo'lga qo'yish, minibanklarni tashkil qilish, plastik kartochkalar, kredit kartochkalar, cheklar, valuta almashtirish va h.k.lar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tashkil qilingan.

Bank marketingini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va ularni universallashtirish;
- xalqaro va mahalliy miqyosda pul ko'chirish operatsiyalarini bajarish muddatlarini qisqartirish; minibanklar sonini ko'paytirish;
- plastik kartochkalardan foydalanishni ommaviylashtirish;
- kredit kartochkalarni muomalaga kiritish va boshqalardir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Barcha mamlakatlar iqtisodiyotida banklar qon tomir vazifasini bajaradi. Ular jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh turgan mablag'larini saqlash, omonatga olish va unga foizlar to'lash, kreditga berish va undan foizlar undirish, pul o'tkazmalari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi. Bu jarayonni tizimli ravishda va optimal tarzda yo'lga qo'yishda bank marketingi asosiy rol o'ynaydi. Bank xizmatlarining bozori qatnashadigan subyektlari va tovarining xususiyati bilan boshqa bozorlardan farqlanadi. Bo'sh pul mablag'lari mavjud bo'lgan va ularni omonatga topshirmoqchi bo'lgan yoki o'z hisobkitob raqamiga ega bo'lishga ehtiyoji bo'lgan yoki pul mablag'larini kredit asosida olishga ehtiyoji bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ushbu bozorning iste'molchilari hisoblanadi. Bank esa, xizmat ko'rsatuvchi (ishlab chiqaruvchi) sifatida ishtirok etadi. Ushbu bozorning tovari-bu iste'molchilarning pul mablag'lari sohasida paydo bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bank tomonidan ko'rsatayotgan xizmatlaridir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar bank amaliyotida ham tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash sohasida banklardagi marketing tizimini rivojlantirish, banklarning kapitallashish darajasini oshirish va likvidligini ta'minlash, tijorat banklari va aktivlarining rentabellik darajalarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Fikrimizcha, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ilg'or xorij tajribasidan O'zbekiston bank amaliyotida raqamli marketingdan foydalanish tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining —O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi Qonun. -T.: O'zbekiston, 21-dekabr 1995- yil.
2. O'zbekiston Respublikasining —Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi Qonun. -T.: O'zbekiston, 25- aprel 1996- yil.
3. Abdullayeva Z. Bank ishi. —T.: —Moliyall, 2009. 304 b. B — 166.
4. O.A Ortiqov, I.Ya Qulliev, "Bank menejmenti va marketingi" fanidan o'quv qo'llanma.Toshkent.Toshkent moliya instituti, 2013 yil.
5. Mullajonov F.M. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. T. II O'zbekiston II 2011.
6. A.Taniyev, G'.Porsayev. Internet marketing SamDU, Darslik 2020y.
7. A.Taniyev Innovatsion iqtisodiyot SamDU, Darslik 2020-yil
8. Measuring the Information Society Report. Volume 1. — Geneva: ITU,
9. Ковалев, М.М. Цифровая экономика — шанс для Беларуси / М.М.
10. Ковалев, Г.Г. Головенчик. — Минск: Изд. центр БГУ, 2018. — 328 с.
11. Основы цифровой экономики: учебное пособие / коллектив авторов; под ред. М.И. Столбова, э.А. Бренделевой. — М.: Научная библиотека, 2018. — 238 с. 2017. — 156 p.
12. <http://bitnovosti.com>
13. <http://digital-yeconomy.ru>
14. <http://www.ziyonet.uz>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
